

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI**

**MILLIY/MAHALLIY KLINIK PROTOKOL VA
STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISH, TASDIQLASH VA
TIBBIYOT AMALIYOTIGA JORIY ETISH
METODOLOGIYASI**

TOSHKENT-2024

FOYDALANILGAN ASOSIY TUSHUNCHALAR va TA'RIFLAR

Isbotlangan (dalillarga asoslangan) tibbiyot – bemorning ma'lum holatida yoki kasalligida profilaktika, tashxislash, davolash, tibbiy rehabilitatsiya va palliativ tibbiy yordam ko'rsatishda mos keladigan, ketma-ketligi va tahlilini o'tkazish bilan mavjud klinik tadqiqotlar natijalariga asoslangan, eng samarali zamonaviy dalillarni qo'llanilishdir. Isbotlangan tibbiyot ma'lumotlari asoslanganligi darajalarda kiritiladi (misol uchun - **I(A)-daraja** – eng yuqori daraja hisoblanadi, shuningdek, tadqiqotlar natijalari asosida **II(B)-daraja**, **III(C)-darajalar** ham yoritiladi, isbotlangan ma'lumotlarning eng past darajasi **IV(D)-daraja** deb belgilanadi).

Standartlashtirish – dunyoning aksariyat mamlakatlarida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning zamonaviy ustuvor vositasi bo'lib, tibbiy yordam sifatiga qo'yiladigan talablarni birlashtirish va asossiz aralashuvlarni minimallashtirish imkonini beradi, bu esa davlat uchun davolash usullarining yuqori xarajatlarini kamaytiradi va to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy foyda olishga xizmat qiladi.

Klinik qo'llanma (keyingi o'rinlarda – KQ) – dalillarga asoslangan tibbiyot ma'lumotlari asosida bemor uchun profilaktika, diagnostika, terapevtik va rehabilitatsiya choralari qo'llash uchun keng ko'lamdagi tavsiyalar to'plamidir. Horijiy davlatlarda aholiga tibbiy yordamni ko'rsatish klinik qo'llanmalar asosida olib boriladi.

Milliy klinik protokol (keyingi o'rinlarda – milliy KP) – klinik qo'llanmalar asosida ishlab chiqiladigan hujjat bo'lib, Milliy KP muayyan kasallik yoki klinik holat uchun profilaktika, diagnostika, terapevtik va rehabilitatsiya choralari qo'llash bo'yicha KQni moslashtirish orqali ishlab chiqilgan tavsiyalar to'plamidir. KP sog'liqni saqlashning amaliyotida KQni joriy etish vositalaridan biri hisoblanadi. KP normativ-huquqiy hujjat emas va tavsiya xarakteriga ega hisoblanadi.

Milliy tibbiy standarti (keyingi o'rinlarda – TS) – ma'lum bemorning kasalligi (aniq nozologiya bo'yicha) uchun tibbiy yordam ko'rsatishning me'yorlarini tashkil etilishi va bajarilishiga qo'yiladigan talablar hamda sifat mezonlaridir, shuningdek, keyinchalik tizim boshqaruvida sifatni ta'minlashning turli darajalarida auditlar o'tkaziladigan ko'rsatkichlarni belgilaydigan davlat me'yoriy hujjati hisoblanadi. Tibbiy xizmat standartlari tibbiyot muassasalari darajalari va mavjud tibbiy apparaturalar bilan jihozlanganlik holatidan kelib chiqib tibbiy xizmatlar ko'lamini ko'rsatilishini belgilaydi.

Mahalliy klinik protokol (keyingi o'rinlarda – mahalliy KP) – milliy KP va tibbiy standartlar asosida ishlab chiqiladigan hamda shu muassasada ko'rsatiladigan tibbiy xizmat hajmi va tibbiy apparaturalar ta'minotidan kelib chiqib tibbiyot muassasasi darajasida tasdiqlanadigan me'yoriy hujjatdir. Ayrim kasalliklar va boshqa patologik holatlar uchun uzluksiz, samarali va tejamkor tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan. Mahalliy KPlar nozologiyalar respublika, viloyat va tuman hamda ambulator xizmat ko'rsatadigan davlat va nodavlat tibbiyot muassasalarida ko'rsatiladigan tibbiy xizmat hajmidan kelib chiqib ishlab chiqiladi.

Standart operativ muolajalar (keyingi o'rinlarda – SOM) – har bir nozologiya bo'yicha amalga oshiriladigan muolajalar yoki amaliy ko'nikmalarni

kim tomondan, qaysi davolash profilaktika muassasasida amalga oshirilishi hamda mazkur amaliyotni bajarish uchun kerak bo'ladigan sharoit va tibbiy jihozlar, apparaturalar ta'minoti qadamma-qadam bajarilishi to'g'risida *yo'riqnoma* ko'rinishidagi me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Harakatlar algoritmidan farqli o'laroq, mazkur hujjat nozologiya bo'yicha mas'ul tibbiyot xodimi tomonidan amalga oshiriladigan ko'nikma, harakatlari va muolajalarini qadamma-qadam bajarilishi to'liq yoritilib chiqiladi.

Standart operativ muolajalarni ishlab chiqilishining dolzarbligi (samarali, xavfsiz va iqtisodiy qulay bo'lgan hamda dalillarga asoslangan ma'lumotlar asosida)gi tibbiy texnologiyalarni ratsional tanlash va oqilona qo'llashdir. SOMlar ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatni sifatini baholash, shifokor va bemor o'rtasidagi nizolik holatlar kabi savollarning yechimini topish uchun kerakli hujjatlardir.

Ushbu hujjatlar o'rtasidagi asosiy tafovutlar:

— Klinik qo'llanmalar va ular asosida ishlab chiqilgan Milliy klinik protkollar: tibbiyot fanining so'nggi yutuqlariga asoslangan klinik amaliyotning ma'lumotnoma jamlamasi bo'lib, "Nima qilish mumkin?" degan savolga javob beradi.

— Milliy tibbiy standartlari "Mamlakat sharoitida buni qanday amalga oshirish kerak?" degan savolga javob beradi.

— Mahalliy KP va standart operativ muolajalari bo'lib, "Buni muayyan tibbiy muassasada qanday amalga oshirish kerak?" degan savolga javob beradi.

Huquqiy maqomi bo'yicha farqlanishi:

— Klinik qo'llanma assotsiatsiya yoki boshqa kasbiy tashkilot tarkib maxsus ishchi guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlanadigan professional hujjatdir.

— Milliy/mahalliy KP, TS, SOMlar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat darajasida tasdiqlanadigan me'yoriy hujjatlardir.

— Mahalliy KP (tashxislash va davolash tartibi, bemor marshruti) tibbiyot muassasasi darajasida tasdiqlanadi.

Klinik protokol va standartlarni ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan tashkilot – KP va Slarni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot bo'lib, mas'ul tashkilot barcha jarayonni boshqaradi, tashkillashtiradi va hamkorlikni olib boradi.

Klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish uchun mas'ul tashkilot qoshidagi multidissiplinar ishchi va muallif (hammuallif)lar guruhi, taqrizchilar, ekspertlar – tibbiyot amaliyotining tegishli sohasi bo'yicha mutaxassislarining guruhidir. Ular klinik protokollarni qayta ko'rish va ishlab chiqish, tibbiy xizmat sifatining indikatorlarini ishlab chiqish, shuningdek, KPni joriy qilish va monitoring jarayonida ishtirok etadi.

Tashxislash va davolash – aholining tibbiyot muassasasiga murojaatida tibbiyot xodimlari tomonidan salomatlik holatini baholash, kasalliklarni erta

aniqlash va keyingi taktikani belgilash uchun o'tkaziladigan tibbiy harakat va muolajalarni mujassamlangan jarayon hisoblanadi.

Tibbiy aralashuvlar – bemorlar salomatligini tiklash va yaxshilashga qaratilgan bo'lib, unda kasallikni oldini olish, profilaktikasi, tashxisi, davolash, reabilitatsiyasi maqsadida tibbiyot xodimi tomonidan tibbiy yordam ko'rsatishda bajariladigan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'siri va (yoki) boshqa muolajalarni o'zida jamlaydi.

Tibbiy reabilitatsiya va profilaktika – bemor organizmi jarohatlangan va (yoki) yo'qolgan faoliyatini qisman yoki to'liq tiklanishiga qaratilgan tibbiy xizmat kompleksi.

Palliativ tibbiy xizmat – kasallikdan tuzalmaydigan bemorni radikal davoni o'tkazishga ko'rsatma bo'lmagan holatda kasallikni og'ir ko'rinishini va og'riqni yengillashtirishga qaratilgan tibbiy xizmatlar kompleksi.

Manfaatlar to'qnashuvi – tibbiyot yoki farmatsevtika xodimini professional faoliyatini bajarishi jarayonida moddiy manfaatlar olish yoki boshqa ustivorliklar ko'rinishidagi shaxsiy manfaatidan kelib chiqishi oqibatida bemor manfaati va tibbiyot yoki farmatsevtika xodimlarini shaxsiy manfaatlariga zid keladigan holatlardir.

Manfaatdor tomonlar – KPvaSlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishda manfaatdor bo'lgan barcha tashkilot, idora va muassasalar, Kengashlar a'zolari va xodimlari, jumladan multidistsiplinar ishchi guruh a'zolari, muallif va hammualliflar, taqriz qiluvchi va ekspertlar sifatida Dalillarga asoslangan tibbiyot markazi, Respublika va (yoki) xorijiy davlatlardan sohaning yo'nalishlari bo'yicha tibbiyot assotsiatsiyalari, qo'mita va jamoalari, davolash profilaktika muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, xususiy sektor va boshqa tegishli tashkilotlardan jalb qilinadigan professor-o'qituvchilar, yetakchi olim yoki mutaxassislar hisoblanadi.

Ustivorlik – bu muammoni tanlangan yo'nalishning muhimligini aniqlash imkonini beradigan solishtirish xususiyatiga ega mezonlardir.

Pediatriya, terapiya, jarrohlik va hamshiralik ishi tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha Kengashlar – metodologiya asosida ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlarni xalqaro tavsiyalar qo'llanmalarga muvofiq ishlab chiqilganligi hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini baholash maqsadida tashkil qilinadi. Mazkur Kengashlar a'zolari tibbiyot yo'nalishlariga mos keladigan Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Oliy ta'lim muassasalari, Assotsiatsiyalar rahbarlaridan iboratdir.

Kengashlar o'rnatilgan tartibda milliy/mahalliy KPvaSlarni loyihalarini **ADAPTE** xalqaro ekspertlar guruhi hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga muvofiq **AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation)** so'rovnomasidan foydalanib baholash o'tkaziladi va muhokamaga chiqariladi. Muhokama yakuni bo'yicha Kengashlar yig'ilishi bayonnomalari rasmiylashtiriladi va keyingi bosqichlarga taqdim etiladi.

Muvofiqlashtiruvchi Kengash – mazkur metodologiya asosida ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlar sifati, mazmuni va texnik tomonlari bo‘yicha taqriz, ekspertiza va Kengashlar muhokamasidan o‘tganidan so‘ng, tasdiqlashga tavsiya qilish uchun shakllantirilgan kengash sifatida faoliyat yuritadi. Kengash tarkibi sog‘liqni saqlash vazirligining tegishli boshqarmalari rahbarlari, tibbiyot oliy ta’limi muassasalari rahbarlari, hududiy sog‘liqni saqlash boshqarmalari rahbarlari, amaliyotchi shifokorlardan iborat bo‘ladi. Asosiy maqsad, ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlarni amaliyotda qo‘llashda foydalanish uchun yakuniy xulosa berish.

KIRISH

Dolzarbligi

Tibbiy xizmat sifati – tibbiy yordamni o‘z vaqtida ko‘rsatilishi, tibbiy yordam ko‘rsatishda profilaktika, diagnostika, davolash va rehabilitatsiya, palliativ usullarini to‘g‘ri tanlash hamda rejalashtirilgan natijaga erishish darajasini aks ettiruvchi xususiyatlar majmui hisoblanadi.

Tibbiy yordam sifatini oshirish nafaqat davolash natijalarini yaxshilash, davolanish xarajatlarini optimallashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Xarajatga nisbatan natijadorligi tibbiy xizmat ma‘lum bir turini samaradorlik ko‘rsatkichidir. Ushbu mafkurani amalga oshirishning eng samarali vositasi klinik amaliyotda dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarini keng qo‘llashdir.

KPlarning asosiy maqsadi aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirishdan iboratdir. Ular o‘zida eng zamonaviy, nazoratga olinadigan random usulida klinik tadqiqotlarning tasdiqlangan natijalari va dalillarga asoslangan ilmiy-asoslangan tibbiy ma‘lumotlarni tutadi. KPlarni farqlovchi tomoni odatiy davolash usullari yoki shaxsiy malaka yoki tajriba asosida emas, balki ilmiy asoslangan va yaxshi rejalashtirilgan hamda sifatli o‘tkazilgan tadqiqotlar ma‘lumoti asosida ishlab chiqiladi. Ular muntazam o‘rganiladi, nazorat qilinadi va yangilanadi.

KPlarni muayyan muammo (kasallikni tashxislash/yoki davolash) bo‘yicha ishlab chiqish uchun ma‘lum yo‘nalish yoki soha bo‘yicha qaror qabul qilish va tahlil uchun kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarga ega bo‘lgan ekspertlar guruhi tuziladi. Ishchi guruhning asosiy vazifasi mavjud tibbiy ma‘lumotlarni o‘rganib chiqib, shifokorlarga tushunarli bo‘lgan va qisqartirilgan xulosalarni taqdim qilishdir.

Yildan yilga dunyo bo‘yicha ma‘lumotlar ko‘paygani kabi, KPlar va qo‘llanmalar soni jadal ko‘payib bormoqda, bu esa o‘z o‘rnida ularni bir biriga mos kelmasligi va zid bo‘lib qolishini ham keltirib chiqarmoqda. Bu muammoni yechish maqsadida markazlashgan holda barcha tibbiy xizmatlar hajmini standartlashtirish, unda tibbiyot muassasalarining darajasi va imkoniyati inobatga olingan holda amalga oshiriladi, shuningdek, aniq klinik amaliyotga qaysi tavsiyalar mos ravishda shakllantirilishi dolzarb hisoblanadi.

Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni nozologiyalar bo‘yicha ishlab chiqish uchun tanlab olishda ADAPTE xalqaro ekspertlar guruhining **PIPOH** formulasini tavsiyalardan foydalanildi;

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari asosida har bir tanlab olingan KP Pediatriya, terapiya, jarrohlik va hamshiralik ishi tibbiyot yo‘nalishlari va hududlarda tashkil qilinadigan Mahalliy kengashlar a‘zolari tomonidan baholash instrumenti sifatida AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation)-so‘rovnomasidan foydalangan holda o‘tkazish tanlab olindi;

Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlar – Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya va shu kabi rivojlangan davlatlardagi “Klinik qo‘llanmalar” strukturasi, MDH davlatlari, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasi tavsiyalari asosida shakllantirildi;

Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarga muvofiq tibbiy xizmat ko'rsatishni monitoringini rejalashtirish, o'tkazish talablari – **The WHO-INTEGRATE evidence to decision framework version 1.0** – ma'lumotlaridan foydalanildi;

Tibbiy hatoliklarni aniqlash va statistik ma'lumotlarni yuritish bo'yicha ma'lumotlar – **AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya**, Germaniya, **Janubiy Koreya** kabi mamlakatlar hamda **JSST**, Tibbiy tadqiqotlar va tibbiy xizmat sifatini yaxshilash agentligi (AQSH, **Agency for Healthcare Research and Quality**) ma'lumotlaridan foydalanildi.

UMUMIY MA'LUMOTLAR

Mazkur metodologiya milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish harakatlarini belgilaydi.

Xalqaro klinik qo'llanmalar, yuqori darajadagi dalillarga asoslangan ma'lumotlar bazasidan olingan tavsiyalar kiritilgan holda ishlab chiqilgan yoki yangilangan **Milliy klinik protokollar** (keyingi o'rinlarda – milliy KP) O'zbekiston Respublikasi hududida milliy hisoblanadi, sog'liqni saqlash tizimining davlat va nodavlat tibbiyot muassasalarida foydalanish uchun mo'ljallangan. Milliy klinik protokollar tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, ular tutgan ma'lumotlari horij davlatlarida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, amaliyot va dori vositalarining yuqori darajadagi isbotlanganlik hamda ijobiy natijadorligini tasniflaydi.

Milliy tibbiy standartlar (keyingi o'rinlarda – milliy TS) ishlab chiqilgan milliy klinik protokol asosida tibbiyot yo'nalishining aniq nozologiyasi bo'yicha bemorning yoshi, jinsi, kasallikning turi va bosqichlari hamda tibbiy xizmatni ko'rsatish (ambulator yoki statsionar) sharoiti inobatga olingan holda, Sog'liqni saqlash tizimi muassasalarining darajasi kesimida ko'rsatayotgan tibbiy xizmat ko'lami va imkoniyatlaridan kelib chiqib tibbiyot xodimining harakatlari, tibbiy xizmat turlari va hajmini qamrab olgan holda ishlab chiqiladi. Milliy tibbiy standartlar O'zbekiston Respublikasi hududida milliy hisoblanadi va sog'liqni saqlash tizimining davlat va nodavlat tibbiyot muassasalarida bajarilishi majburiydir. Shuningdek, tibbiyot muassasa rahbarlari monitoring o'tkazadiganlar, tibbiy xizmat sifatini nazorat qiluvchilari va sug'urta tizimida baholovchilarga tekshiruv instrumenti sifatida foydalanish uchun tavsiya qilinadi.

Milliy **KPaSlar, shuningdek, standart operativ muolaja (SOM)lar** asosida **mahalliy klinik protokollari** ishlab chiqiladi, ular aholiga ko'rsatadigan tibbiy xizmat ko'lami va hajmidan kelib chiqqan holda Respublika, viloyat va tuman darajasidagi statsionar hamda ambulator xizmat ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tibbiyot muassasalarida ishlab chiqiladi, tibbiyot muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi hamda shu muassasada ijrosi ta'minlanishi majburiydir.

Milliy/mahalliy KPvaSlar tarkibida belgilangan tibbiy harakatlar, muolajalar va texnologiyalar turli darajadagi tibbiyot muassasalari uchun ko'rsatma sifatida namoyon bo'ladi. Tibbiy yordam ko'rsatishda sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritadigan tibbiyot xodimlari ularga tayanadi.

Milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqishda sog‘liqni saqlash sohasidagi vakolatli organlar, davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari va muassasalari, tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari, tibbiyot yo‘nalishidagi Assotsiatsiyalar va boshqa vazirlik, idora va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorlikda ishtirok etishi mumkin. Aniq nozologiya bo‘yicha ishlab chiqiladigan Milliy/mahalliy KPvaSlarda ishtirok etadigan turli xil soha va yo‘nalish vakillarini birlashtirishda multidistsiplinar ishchi guruhlar yoki multidistsiplinar mualliflar ishchi guruhlarini tashkil qilish orqali erishiladi.

METODOLOGIYANING MAQSADI

Mazkur metodologiya – sohaga oid tibbiyot yo‘nalishi va nozologiyalar bo‘yicha yangi ishlab chiqiladigan milliy/mahalliy KPvaSlarga qo‘yiladigan talab hamda tartiblarini umumlashtiradi, ma‘lumotlarining sifatini yuqori darajada bo‘lishini ta‘minlaydi, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonlarini bir xillikka (standartlashtiradi) keltiradi. Shuningdek, amaliyotda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat samaradorligini yuqori bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

METODOLOGIYANING VAZIFALARI

mazkur metodologiyani KPvaS ishlab chiqishga mas‘ul bo‘lgan tashkilot va uning qoshida tashkil qilinadigan multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlar uchun metodik qo‘llanma sifatida foydalanishni ta‘minlash;

multidistsiplinar va mualliflar ishchi guruhlar rahbarlari hamda a‘zolarini roli va funksional mas‘uliyatlarini belgilab berish;

milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqishda xalqaro klinik qo‘llanma va protokollarni tanlash, dalillarga asoslangan tibbiyot ma‘lumotlarini tutuvchi elektron kutubxonalar, axborot resurslaridan foydalanishni ta‘minlash;

milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqishda tibbiy amaliyot va ta‘lim jarayonida horij davlatlarida yuqori darajadagi dalillarga asoslangan holda ishlab chiqilgan klinik qo‘llanma/protokollardagi mahalliy sharoitga moslashtirilgan /muvofiqlashtirilgan tavsiyalardan foydalanishni ta‘minlash;

ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlar loyihalarini texnik jihatdan, strukturasi, mazmun-mohiyati va tavsiyalarining isbotlanganlik darajasi, mahalliy amaliyotda qo‘llanilishi imkoniyatlari yuzasidan taqriz olish, yig‘ilishlarda muhokama qilish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash jarayoni bo‘yicha ma‘lumotlarni ochiqqligini ta‘minlash;

tasdiqlangan milliy/mahalliy KPvaSlar, ishlab chiqish rejasi, metodologiya, ishchi va mualliflar guruhlar, ekspertlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni sog‘liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-saytidan yuklab olish va amaliyotda foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

ekspertizadan o‘tgan milliy/mahalliy KPvaSlar loyihalari terapiya, pediatriya, jarroxlilik va hamshiralik ishi yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus Kengashlarida xalqaro tavsiya qilinadigan AGREE metodikasi asosida muhokama qilish, shuningdek,

Muvofiqlashtiruvchi Kengashdan tasdiqlash uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlardan xabardor qilib borish;

tibbiyot amaliyotiga joriy etish maqsadida o'quv mashg'ulot, master-klasslar va monitoringlarni o'tkazish grafik rejasi, o'quv dasturlar hamda hisobotlar shakllari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratish;

monitoringda aniqlangan tibbiy hatoliklarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni shakllantirish, tibbiy xatoliklarni bartaraf qilish maqsadida shu nozologiya bo'yicha KPvaSlarni qayta ko'rib chiqish va yangilashni ta'minlash.

Milliy KPvaSlarni amaliyotda qo'llashdan kutilayotgan natijalar

KPvaSlardagi tasdiqlangan tavsiyalarni qo'llash tibbiyot amaliyotida tibbiy yordam ko'rsatishni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, mahalliy tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish;

dalillarga asoslangan tibbiyot usullarining isbotlanganlik darajasi yuqori bo'lgan tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlar bilan tibbiyot xodimlarini ta'minlash va amaliyotga joriy qilish orqali tibbiyot tizimining barcha darajalarida bemorlarni munosib davolash tizimini shakllantirish;

davolash va profilaktikaning samarasiz usullarini, milliy/mahalliy KPvaSlar to'g'risida kam bo'lgan diagnostika usullarini, xavfsiz bo'lmagan dori vositalari va jarrohlik amaliyotlarini qo'llash chastotasini kamaytirish;

kasalliklar asoratlari va o'lim xavfini sezilarli darajada kamaytirish;

nozologiyalar bo'yicha tashxislash, davolash, profilaktika va rehabilitatsiya, palliativ davo uchun optimal (muqobil) texnologiyalarni tanlash va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

tibbiy hatoliklarni erta aniqlash, prognozlash bilan shifokorlar hatoliklarini oldini olishga erishish;

tibbiy hatoliklar sababli munozarali va ziddiyatli masalalarni hal qilishda bemor va shifokorning huquqlarini himoya qilish;

tibbiy ta'limning diplomoldi va diplomdan keyingi bosqichlarida xalqaro standartlariga muvofiq yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash;

sog'liqni saqlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish.

Milliy/mahalliy KPvaSlarni 2 xil usulda ishlab chiqilishi nazarda tutiladi:

1-usul – sog'liqni saqlash vazirligining mazkur metodologiyada belgilangan tartib va talablari asosida nozologiyalar bo'yicha KPvaSlar ishlab chiqish uchun mas'ul tashkilot boshchiligida har yili tasdiqlanadigan rejaga muvofiq;

2-usul – sog'liqni saqlash vazirligining tassarufidagi davlat va nodavlat tashkilotlarning rejadan tashqari bo'lgan murojaatiga muvofiq.

Bunda, sog'liqni saqlash vazirligiga rasmiy xat bilan murojaat qilinadi, tanlangan nozologiya bo'yicha KPvaSlar ishlab chiqilishi/qayta ko'rib chiqilishi yoki yangilanishiga ehtiyoj mavjudligi Muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasida

tasdiqlangandan soʻng, mazkur metodologiyada keltirilgan tartib va talablarga muvofiq KPvaSlar ishlab chiqiladi.

Milliy Kplar va standart operativ muolajalari har 5 yilda 1-marta, milliy tibbiy standart, mahalliy KPlar har 3 yilda 1-marta va/yoki zarurat tugʻilganida yangi zamonaviy texnologiyalar va davolash usul hamda uslublarni yoritish maqsadida qayta qoʻrib chiqiladi.

Milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy qilish jarayoni bir nechta bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

1-bosqich: Milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqishga tayyorgarlik hamda ishlab chiqish va tasdiqlash jarayonining tartibi;

2-bosqich: Milliy/mahalliy KPvaSlarni amaliyotga joriy etish jarayonining tartibi;

3-bosqich: Monitoring oʻtkazish va milliy/mahalliy KPvaSlarga muvofiq tashxislash va davolash jarayonida tibbiy xatoliklarni aniqlash.

1-bosqich

MILLIY/MAHALLIY KLINIK PROTOKOL VA STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISHGA TAYYORGARLIK KOʻRISH HAMDA ISHLAB CHIQISH VA TASDIQLASH JARAYONING TARTIBI

Milliy KPvaSlarni ishlab chiqilishi ichki logistikaga ega boʻlgan, yaxshi tashkil etilgan texnologik jarayon boʻlishi kerak. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti tomonidan soddalashtirilgan 2-xil usulda KPvaSlarni ishlab chiqish/yangilash tavsiya qilinadi: **adoption** – tan olinishi va/yoki qabul qilish, **adaptation** – moslashtirish va/yoki muvofiqlashtirishdir.

Bu usullarda KPvaS ishlab chiqishga tayyorgarlik koʻrish ortiqcha resurslarni tejash hamda murakkab va keng koʻlamli tahliliy ishlar takrorlanishini oldini olish imkonini beradi.

Adoption – tan olish yoki qabul qilish – bu eng oson usul hisoblanib, ishonchli xorijiy tashkilotlar/assotsiatsiyalar tomonidan ishlab chiqilgan klinik qoʻllanmalar yoki protokollar tarkibidagi tavsiyalarni davlat tiliga tarjima qilishdan iborat.

Adaptation – moslashtirish/muvofiqlashtirish – bu ortiqcha harajatlar va bajariladigan ishlarni takrorlanishini kamaytirish maqsadida Respublika va hududlardagi sogʻliqni saqlash tizimining mahalliy sharoitlari, mavjud imkoniyati, koʻrsatayotgan tibbiy xizmat koʻlami, xususiyatlariga xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan klinik qoʻllanma yoki protokollarni moslashtirish/muvofiqlashtirishdan iborat.

Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqish boshqaruv va monitoring, tashkiliy va amaliy, uslubiy yordam koʻrsatish va pedagogik ishlarni amalga oshirishni koʻzda tutadi.

Boshqaruv va monitoring – Sogʻliqni saqlash vazirligining KPvaSlarni ishlab chiqish boʻlimi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi;

Tashkiliy va amaliy yordam ko'rsatish – nozologiya bo'yicha KPvaSlarni ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan tashkilot hamda uning qoshida shakllantiriladigan multidistsiplinar ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi;

Uslubiy yordam va pedagogik ishlarni – nozologiya bo'yicha KPvaSlarni ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan tashkilot boshchiligida multidistsiplinar ishchi va multidistsiplinar mualliflar guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

KPvaSlarni ishlab chiqishga tayyorgarlik ko'rish davrida aniq va to'g'ri yo'nalish olinishi muhimdir, ularni ishlab chiqishga tayyorgarlik ko'rish jarayoniga ajratilgan vaqt oralig'i **1 oygacha** belgilanadi.

I. Tayyorgarlik ko'rish jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqishga mas'ul tashkilotlar ro'yxati va multidistsiplinar ishchi hamda mualliflar guruhlarini tarkibiga jalb qilinadigan turli yo'nalish bo'yicha tor soha mutaxassislarning ro'yxati metodologiyaning 1-, 1A-ilovalariga asosan shakllantiriladi, unda multidistsiplinar ishchi hamda mualliflar guruhlarini tarkibiga mutaxassislarni metodologiyaning 2- ilovasida keltirilgan talablarga muvofiq tanlab olinadi;

Mas'ul tashkilot tomonidan:

2. Multidistsiplinar ishchi hamda mualliflar guruhlarini tarkibiga jalb qilingan tor soha mutaxassislari to'g'risidagi ma'lumotlar **1-jadvalga** muvofiq tashkilot rahbarining tasdiqi bilan SSVga taqdim etiladi;

1-jadval

Multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlariga jalb qilingan tor mutaxassislari to'g'risida ma'lumotlar

T/r	Muallif F.I.Sh.	Lavozimi (unvoni)	Ish joyi	Kontaktlari

*Izoh: multidistsiplinar ishchi guruh uchun alohida, multidistsiplinar mualliflar guruhi uchun alohida jadval to'ldiriladi.

3. Ustivorligi bo'yicha tahlil qilinib, milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish uchun XKT-10/11dagi shifrlar bilan **2-jadvalga** muvofiq **umumiy nozologiyalar ro'yxati** shakllantiriladi;

2-jadval

NOZOLOGIYALAR RO'YXATI										
T/r	XKT-10 shifri	Nozologiya (tashxis) nomi	Yangi metodologiya asosida ishlab chiqiladigan yoki takomillashtiriladigan milliy klinik protokollar bo'limlari				MILLIY TIBBIY STANDARTLARI	MAHALLIY KLINIK PROTOKOLLARI (TIBBIYOT MUASSASASIDA XODIMLAR FOYDALANISHI UCHUN MO'JALLANGAN)		Standart operativ muolajalar
			Tashxislash va davolash klinik protokoli	Tibbiy aralashuvlar o'tkazish klinik protokoli	Proflaktika va reabilitatsiya o'tkazish klinik protokoli	Palliativ davolash o'tkazish klinik protokoli		Ambulator xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot xodimlari uchun klinik protokollar	Statsionar xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot xodimlari uchun klinik protokollar	
TIBBIYOT YO'NALISHI NOMI										
1.										
2.										
...										

4. SSV tomonidan har yili ishlab chiqish uchun tasdiqlanadigan yillik rejaga tavsiya qilinadigan nozologiyalar umumiy ro'yxatidan **eng dolzarb bo'lganlari tanlab olinadi.**

Bunda:

- aholi salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, keng tarqalgan va/yoki kasallanish darajasi yuqori bo'lgan nozologiyalar tanlanishi maqsadga muvofiqdir;

- tanlangan nozologiya bo'yicha aholi orasida o'lim darajasining yuqoriligi;

- nozologiyaning katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi;

- nozologiya bo'yicha amaliyotda yangiliklar va/yoki o'zgarishlar mavjudligi;

- nozologiyalarni tashxislash, davolash, profilaktika va reabilitatsiya qilishni sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradigan dalillarga asoslangan tibbiyot nuqtayi nazaridan yangi, fundamental ma'lumotlar paydo bo'lgan holatlarni inobatga oladi.

5. Umumiy ro'yxatdan ustuvorligi 4-bandda keltirilganlar bo'yicha ajratib olingan eng muhim nozologiyalarni **3-jadvalga** muvofiq yillik rejada tasdiqlash uchun SSVga taqdim etiladi;

3-jadval

20__-YILDA YO'NALISHLAR KESIMIDA ISHLAB CHIQILISHI REJALASHTIRILGAN KLINIK PROTOKOLLAR VA STANDARTLAR HAMDA MAS'UL TASHKILOTLAR RO'YXATI

T/r	Nozologiyalar (yo'nalishlar) ro'yxati	Mas'ul tashkilot	2024-yilda XKT-11 bo'yicha ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan klinik protokol va standartlar nozologiyalari ro'yxati			
			I-chorak	II-chorak	III-chorak	IV-chorak
1						
2						
...						

6. Milliy/mahalliy KPvaSlar nozologiyalarining ro'yxati, multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhleri a'zolarining ma'lumotlari kiritilgan holda shakllantirilgan ro'yxati Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

II. Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash jarayoni:

Bu jarayonda asosiy mas'uliyat tashkiliy masalalarni va nazoratini olib borishga hamda milliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqishga *mas'ul bo'lgan tashkilot* zimmasiga yuklatiladi.

Mas'ul tashkilot tomonidan:

1. Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhleri a'zolari bilan yig'ilishlar o'tkazadi hamda doimiy nazoratni olib borish uchun hamkorlik qiladi;

Multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhleri bilan hamkorlikda:

2. Milliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqish vazifalarini taqsimlaydi;

3. Milliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqish uchun xalqaro klinik qo‘llanmalar hamda dalillarga asoslangan tibbiyotning elektron kutubxonalari manbalaridan isbotlanganlik darajasi yuqori bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlaydi;

Milliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqishda xalqaro klinik qo‘llanma yoki protokollarni moslashtirish va/yoki muvofiqlashtirish jarayoni ko‘proq vaqtni, shuningdek, tashkiliy resurslarni, eng muhimi, yuqori malakali uslubiyotchilarning ishtirokini talab qiladi.

4. Halqaro klinik qo‘llanmalarni moslashtirish/muvofiqlashtirishda yillik rejaga kiritilgan nozologiyalar bo‘yicha ADAPTE xalqaro ekspertlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan bosqichma-bosqich amalga oshirish tartibini belgilaydigan **PIPOH formulasi**dan foydalaniladi, bunda:

P (population) – bemorlar populyatsiyasi va kasallikning xususiyatlari;

I (interventions) – ko‘rib chiqilayotgan tibbiy aralashuvlar;

P (professionals) – milliy/mahalliy KPvaSlar mo‘ljallangan bemorlarning guruhi;

O (outcomes) – yaxshilanishi mumkin bo‘lgan kutilayotgan natijalar (kasallikning natijasi, sog‘liqni saqlash tizimi ko‘rsatkichlari, epidemiologik ko‘rsatkichlar va boshq.);

H (health care setting) – tibbiy yordam ko‘rsatiladigan muassasa (ambulator, stasionar, tez tibbiy yordam va h.k.)lar to‘g‘risida ma’lumotlar o‘rganiladi, tahlil qilinadi va eng ustivori tanlanadi.

5. **PIPOH formulasi** asosida o‘tkazilgan tahlil va ma’lumotlarni tanlashda manfaatlar to‘qnashuvi kuzatilish holatlari bo‘lishi mumkin, unda mas’ul tashkilot rahbari ishchi guruh a’zolari ogohlantiriladi va oldini olish hamda metodologiyaning 3-ilovasida keltirilgan uslubda konsensusga erishish yo‘llarini ta’minlaydi;

6. Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqish vaqtida dalillarga asoslangan tibbiyotning isbotlanganlik darajasi yuqori bo‘lgan ma’lumotlarni tahlil qiladi, xalqaro klinik qo‘llanma va protokollarni tanlaydi, ularni internet tarmog‘ida xalqaro ma’lumotlar bazasini tutgan elektron kutubxonalari manbalaridan, ya’ni “Dalillarga asoslangan tibbiyot” blokidagi elektron kutubxonalar – Cohrane, PubMed, Medline, Scopus, Wos, Uptodate va Springer Nature (Elsevier) kabi bazalardan tizimli qidiruvni amalga oshiradi, shu saytlardan tanlab olingan klinik qo‘llanma va protokollarni tarkibidan tavsiyalarni milliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqishda foydalanilinish uchun tayyorlaydi.

7. Tanlab olingan xalqaro klinik qo‘llanma va protokollarning metodologik sifati mazmunini, maqbullik darajasi va mahalliy sharoitlarda qo‘llanilishi mumkinligini baholaydi.

8. Milliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalarni mazkur metodologiyaning 4-, 4A-, 4B-ilovalaridagi strukturaga muvofiq rus va o‘zbek (kirill va lotin) tillarida ishlab chiqadi;

9. Milliy KP xalqaro klinik qo‘llanmalarni moslashtirilish/muvofiqlashtirilishi orqali ishlab chiqiladi va uni ishlab chiqishda xalqaro tavsiyalarni kiritish talab etiladi, shuningdek ular sogliqni saqlash tizimida yangi texnologiyalar va davolash usullarini kiritishga yo‘naltiruvchi vazifani bajaradi;

10. Milliy tibbiy standartlar va standart operativ muolajalari sog‘liqni saqlash tizimida mavjud tibbiy ta‘minotni e‘tiborga olgan holda ishlab chiqiladi. Standartlarga kiritilgan ma‘lumotlar tibbiyot xodimlari tomonidan ijrosi 100% ta‘minlanishini belgilanadi. Shu bois, ishlab ichquvchi mualliflar tibbiyot muassasalarining darajasidan kelib chiqib tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyati, tibbiyot xodimlarining vazifa majburiyatlarini inobatga olinishi ta‘minlanishi zarur.

III. Mahalliy klinik protokollar ishlab chiqish hamda tasdiqlash jarayoni

Ishlab chiqilgan va tasdiqlangan milliy KPvaSlar asosida **Mahalliy klinik protokollar** ishlab chiqiladi.

Mahalliy klinik protokollar

– Respublika, viloyat, tumanlararo, tuman darajasidagi statsionar tibbiyot muassasalari sharoitda tashxislash va davolashga mo‘ljallangan tibbiyot muassasalari uchun va,

– MTP, OSHP, OP, KTMPlarda ambulator sharoitda tashxislash va davolashga mo‘ljallangan tibbiyot muassasalari uchun mo‘ljallangan;

– Davlat hamda nodavlat tibbiyot muassasalarining ichki xujjati sifatida xizmat qiladi;

– Mahalliy KPlarni tibbiyot muassasasining rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari rahbarlari, tuman/shahar tibbiyot birlashmalari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Mahalliy KPlarni taqriz olish, ekspertizadan o‘tkazish hamda Kengashlar muhokamasidan o‘tkazish jarayoni Milliy KPlardan nisbatan farqlanadi, **unda:**

– Mahalliy klinik protokollar mazkur metodologiyaning 5-, 5A-ilovada keltirilgan strukturaga muvofiq ishlab chiqiladi.

– ambulator sharoitda tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun mahalliy KPlarni TTB/SHTB rahbarlari;

– statsionar sharoitda tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun mahalliy KPlarni ishlab chiqishda TTB/SHTB rahbarining buyrug‘iga muvofiq muassasada mavjud bo‘lim va mutaxassisliklardan kelib chiqib multidistsiplinar mualliflar guruhi tashkil qilinadi. Mualliflar ro‘yxatiga RIIATM va uning hududiy filiallari, tibbiyot OTMlari mutaxassislari ham jalb qilinishi mumkin.

– multidistsiplinar mualliflar guruhlarining raisi tibbiyot muassasining rahbari belgilanadi;

– multidistsiplinar mualliflar guruhlari SSVning buyrug‘i bilan tasdiqlangan milliy KPvaSlardan foydalanib o‘z tibbiyot muassasasining darajasi, aholiga ko‘rsatadigan

tibbiy xizmat hajmi hamda mavjud tibbiy ta'minotidan kelib chiqib, tibbiyot yo'nalishi va nozologiyalar bo'yicha mahalliy KPlarni ishlab chiqadi;

– Ishlab chiqilgan mahalliy klinik protokollar o'rnatilgan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalarida tashkil qilingan Mahalliy kengashlarga 2 ta taqriz bilan taqdim etiladi.

– Mahalliy kengashlarda ishlab chiqilgan mahalliy KP larni sifatini baholash uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) - so'rovnomasi asosida baholanadi va muhokamadan o'tkaziladi (metodologiyaning 8-ilovasida keltirilgan);

– Mahalliy Kengashdan ijobiy natija olgan mahalliy KP lar TTB/SHTB rahbari tomonidan tasdiqlanadi;

– Har chorakda o'rnatilgan tartib asosida SSVning tegishli departamenti/boshqarmasi/bo'limiga taqdim etib boriladi.

Milliy/mahalliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalarni 4-, 4A-, 4B-, 5-, 5A-illovalarda keltirilgan strukturaga muvofiq ishlab chiqishda uning tuzilishi va matniga qo'yiladigan talablar:

1. Matnda keltirilayotgan ma'lumotlar xalqaro klinik qo'llanmalar, dalillarga asoslangan tibbiyot ma'lumotlar moslashtirilishi/ muvofiqlashtirilishi hamda ilmiy asoslanganlik (dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillaridan foydalanish) darajalari yoritilgan holda bo'lishi;

2. Matnda yagona yozuv stilistikasi va mazmunning ketma-ketligi (mantiqiyligi)ning saqlanishi;

3. Shaffoflik va holislikni (multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruh a'zolari, hammualliflar, taqrizchi va ekspertlarning to'liq F.I.Sh. va ish joyini ko'rsatgan holda milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlarning yig'ilishlarini bayonlashtirish) ta'minlanishi;

4. Amaliyotda samaradorligi bo'yicha klinik sinovlar asosida isbotlangan dori vositalari va tibbiy buyumlarning faqat xalqaro patentlanmagan nomlaridan foydalanilishi;

5. Tibbiyot yo'nalishlari, nozologiyalar nomlari va ko'rsatilgan davolash-diagnostika tadbirlari O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq bo'lishi;

6. KPvaSlar matni adabiy til normalariga rioya qilgan holda, 2 xil tilda rus, o'zbek (kirill va lotin) ishlab chiqilishi;

7. Milliy/mahalliy KPvaSlarga kiritilgan atamalar umumtibbiy bo'lishi kerak;

8. KPvaSlar matniga kiritilgan tavsiyalar juda qisqa, tushunarli bo'lishi, turli talqinlarga beriluvchan bo'lmagan aniq ma'noni o'z ichiga olinishi;

9. Havola/giperhavolalar to'g'ri, to'liq bo'lishi va adabiyotlar ro'yxatiga mos kelishi;

10. Tavsiya qilingan tibbiy aralashuvlar, profilaktika va reabilitatsiya hamda palliativ davo muolajalaridan kelib chiqib metodologiyada mos keladigan bloklari bo'yicha ishlab chiqiladi;

11. Algoritmalar, jadvallar bo'lishi kerak, shuningdek, diagrammalar, grafiklar va boshqalar bilan to'ldirilishi mumkin.

III. Milliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalarni loyihalari ishlab chiqilgandan keyingi harakatlar:

Mas'ul tashkilot tomonidan:

1. Milliy KPvaSlar, SOMlar loyihalarini multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlarini a'zolari bilan tanqidiy muhokama qilinadi;

2. Milliy KPvaSlar, SOMlar loyiha matnlariga, ya'ni respublika va horij davlati (2 ta) tashkilotlari yetakchi mutaxassis va olimlaridan, mahalliy KPlar loyihalariga respublika darajasidagi 2 ta yetakchi mutaxassis va olimlardan taqrizlar olinadi (metodologiyaning 6-ilovasida taqrizchilarni jalb etish uchun talablar va taqriz xulosasining namunasi keltiriladi);

3. Milliy KPvaSlarning ishlab chiqilgan loyihalari, taqrizlar va yig'ilish bayonnomasi ko'chirmalari bilan mos ravishdagi pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha Kengashlarida (Kengashlar nizomi va tarkibiga kiritiladigan tashkilotlar 7-, 7A-ilovada keltiriladi), metodologiyaning 8-ilovasida keltirilgan Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining baholash instrumenti sifatida AGREE (Appraisal of Guidelines for Research and Evaluation) so'rovnomasi asosida baholanadi va muhokamasi o'tkaziladi.

4. Milliy KPvaSlarning loyihalari hujjatlari bilan, ya'ni:

- multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhining 2 ta (tayyorgarlik davridagi va loyiha matnini muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan) yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma;

- 2 tadan taqriz (milliy KPvaSlar, SOMlar Respublika va horijiy davlatdan);

- pediatriya, terapiya, jarrohlik, hamshiralik ishi tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha Kengashlar xulosalari bo'yicha taqdimot (prezentatsiya) ma'ruza bilan tasdiqlash uchun SSVning tegishli bo'limiga taqdim etiladi.

SSVning klinik protokol va standartlarni ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan bo'lim tomonidan:

5. Bo'lim tomonidan KPvaSlarni texnik, mazmuni va matnini tahrirlash uchun sog'liqni saqlash vazirligining maxsus ekspertlari jalb qilinadi va ekspertizadan o'tkaziladi, ekspertlar metodologiyaning 6-ilovasiga muvofiq tanlab olinadi va ekspert xulosasini ishlab chiqadi;

6. Ekspertlarning ijobiy xulosasiga ko'ra milliy/mahalliy KpvaSlar, SOMlar metodologiyaning 7-, 7B-ilovasiga muvofiq SSVda tashkil qilingan Muvofiqlashtiruvchi Kengashining tasdig'iga muvofiq buyruq bilan tasdiqlanadi.

7. Tasdiqlangan Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlar Sog‘liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-saytida alohida sahifaga joylashtirilib boriladi va e‘lon qilish, tarqatish, amaliyotga joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilib boriladi.

8. Yil davomida ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarning statistik ma‘lumotlari yil yakuni bo‘yicha SSVning tegishli bo‘limi tomonidan tahlili **4-jadvalga** muvofiq olib boriladi.

4-jadval

202__ yil yakunida Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operativ muolajalarni ishlab chiqilishi va tasdiqlanishining tahliliy holati

/r	Tibbiyot yo‘nalishi va nozologiyalar bo‘yicha ishlab chiqilgan hujjatlar nomi	202__ yillik reja (soni)	202__ yillik ijro (soni)	Rejadan tashqari ishlab chiqilgan (soni)	Farqi (soni)
	Milliy klinik protokollar				
	Milliy standartlar				
	Standart operativ muolajalar				
	Ambulator davolash bo‘yicha mahalliy klinik protokollar				
	Statsionar davolash bo‘yicha mahalliy klinik protokollar				

2-bosqich

MILLIY/MAHALLIY KLINIK PROTOKOL VA STANDARTLAR, STANDART OPERATIV MUOLAJALARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH JARAYONING TARTIBI

Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni amaliyotga joriy qilish bir necha usulda o‘tkaziladi:

- amaliyotda faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari uchun onlayn va offlayn o‘quv kurslari, seminar, master klasslarni o‘tkazish;

- tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimida oliy ta‘limning bakalavriat, klinik ordinatura va magistratura bosqichi talabalarini, diplomdan keyingi malaka oshirish kurslarining o‘quv dasturlariga tatbiq qilish orqali kursantlarga klinik protokollar va standartlarning mazmuni bo‘yicha o‘qitib borish.

Amaliyotda faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari uchun onlayn va offlayn o‘quv kurslari, seminar, master klasslarni o‘tkazish

Tasdiqlangan milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni amaliyotda faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlariga onlayn va offlayn usulida o‘qitishni o‘tkazish uchun **5-jadvalga** muvofiq o‘quv dasturi va o‘qitish grafigi belgilab olinadi.

**202__ YILDA QUIYIDAGI YO‘NALISHLAR BO‘YICHA ISHLAB CHIQLIGAN
KLINIK PROTOKOLLAR VA STANDARTLARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH
YUZASIDAN ONLAYN O‘QUV SEMINAR DASTURI**

T/r	Ma’ruzalar o‘qitiladigan yo‘nalishlar nomlari	Onlayn seminar o‘tkaziladigan muddati
1-chi kun		
1.	Otorinolaringologiya	202__ yil 15:00-18:00
2.	Bolalar otorinolaringologiyasi	
3.	Ftiziatriya	
4.	OIV/OITS	
5.	Bolalar va o‘smirlar OIV/OITS	
2-chi kun		
6.	Travmatologiya va ortopediya	202__ yil 15:00-18:00
7.	Bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi	
8.	Endokrinologiya	
9.	Bolalar endokrinologiyasi	
10.	Shoshilinch va tez tibbiy yordam	
3-chi kun		
11.	Gematologiya	202__ yil 15:00-18:00
12.	Bolalar gematologiyasi	
13.	Onkologiya	
14.	Bolalar onkologiyasi	
15.	Bolalar onkogematologiyasi	
4-chi kun		
16.	Urologiya	202__ yil 15:00-18:00
17.	Bolalar urologiyasi	
18.	Anesteziologiya va reanimatologiya	
19.	Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi	
20.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	
5-chi kun		
21.	Nevrologiya	202__ yil 15:00-18:00
22.	Bolalar nevrologiyasi	
23.	Yuqumli kasalliklar, parazitologiya, epidemiologiya	
24.	Bolalar yuqumli kasalliklari, parazitologiyasi, epidemiologiyasi	
25.	Sport tibbiyoti	
6-chi kun		
26.	Psixiatriya	202__ yil 15:00-18:00
27.	Pedagogik psixologiya, tibbiy psixologiya	
28.	Narkologiya	
29.	Nefrologiya	
30.	Bolalar nefrologiyasi	
7-chi kun		
31.	Pulmonologiya	202__ yil 15:00-18:00
32.	Revmatologiya	
33.	Kardiologiya	
34.	Terapiya	202__ yil 15:00-18:00
35.	Gerontologiya	

T/r	Ma'ruzalar o'qitiladigan yo'nalishlar nomlari	Onlayn seminar o'tkaziladigan muddati
8-chi kun		
36.	Akusherlik va ginekologiya	202__ yil 15:00-18:00
37.	Stomatologiya	
38.	Bolalar stomatologiyasi	
39.	Patologik anatomiya	
40.	Sud-tibbiy ekspertiza	
9-chi kun		
41.	Hamshiralik ishi	202__ yil 15:00-18:00
42.	Immunologiya	
43.	Allergologiya	
44.	Pediatriya	
45.	Neonatologiya	
10-chi kun		
46.	Transplantologiya	202__ yil 15:00-18:00
47.	Xirurgiya	
48.	Bolalar xirurgiyasi	
49.	Neyroxirurgiya	
50.	Oftalmologiya	
51.	Bolalar ko'z kasalliklari	

Mazkur grafik reja asosida onlayn o'quv-kurslar o'tkazish bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli topshirig'i chiqariladi, unda har bir tibbiyot yo'nalishi bo'yicha ma'ruzachilar ro'yxati va onlayn o'quv kurslarni sanalari tasdiqlanadi.

Ma'ruzachilar - Mas'ul tashkilotlar rahbarlari va/yoki SSVning Respublika darajasidagi bosh mutaxassislari bo'lib, milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni mazmun mohiyati bo'yicha ma'lumotlar asosida prezentatsion ma'ruzani ishlab chiqadi va ma'ruzani elektron shaklini o'quv-kursdan 3 kun oldin SSVning tegishli bo'limiga taqdim etadi.

Onlayn o'quv-kurslarni asosiy ishtirokchilari milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot, multidistsiplinar va mualliflar ishchi guruhlari a'zolari, shuningdek, hududlardagi sog'liqni saqlash boshqarmalarining tegishli mas'ullari, SSVning, viloyat va tuman Bosh mutaxassislari va boshqa tegishli tibbiyot xodimlari.

Keyingi bosqichda **3-4 kunlik offlayn seminar va master-klasslar 6-jadvalga** muvofiq grafik-reja tuzgan holda respublikaning barcha hududlarida tashkil qilinadi va o'tkaziladi.

Offlayn o'quv-seminar va master klasslarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilish uchun mas'ul qilib belgilangan tashkilotlar rahbarlari, SSVning Bosh mutahassislari boshchiligida ishchi guruhlari shakllantirilib, sog'liqni saqlash vazirligining tegishli topshirig'i asosida o'tkaziladi.

Offlayn o'quv-seminar va master klasslarni - mas'ul tashkilotlar rahbarlari, SSVning Bosh mutahassislari (konsultantlari) bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Milliy/mahalliy klinik protokollar, milliy standartlar va standart operativ

muolajalarning matni va mazmuni asosida tayyorlagan prezentatsion maʼruzasi hamda amaliy qism mashgʻuloti uchun ishlab chiqqan dasturiga muvofiq oʻtkazadi.

Oʻquv-seminar va master-klasslarni oʻquv dasturini 6-jadvaldagi oʻqitish reja grafigi asosida tashkil qiladi va oʻtkazadi hamda shu grafik asosida 9-ilovaga muvofiq hisobotlarni ishchi guruh rahbariga urnatilgan tartibda topshirib boradi.

6-jadval

202__-YILDA YOʻNALISHLAR BOʻYICHA ISHLAB CHIQLILGAN KLINIK PROTOKOLLAR VA STANDARTLARNI AMALIYOTGA JORIY ETISHGA OID GRAFIK-REJASI

T/r	Hududlar nomi	10 kunlik onlayn oʻquv seminar	Hududlarda 3 kunlik offlayn oʻtkaziladigan seminar, master-klasslar muddatlari	Hududlarda hamkorlikda oʻtkaziladigan 3 kunlik monitoring muddatlari
	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	202__-yil fevral, may, avgust, noyabr	202__-yil mart, sentyabr	202__-yil mart, sentyabr
	Andijon viloyati		202__-yil aprel, oktyabr	202__-yil aprel, oktyabr
	Buxoro viloyati		202__-yil may, noyabr	202__-yil may, noyabr
	Jizzax viloyati		202__-yil iyun, dekabr	202__-yil iyun, dekabr
	Qashqadaryo viloyati		202__-yil mart, sentyabr	202__-yil mart, sentyabr
	Namangan viloyati		202__-yil may, noyabr	202__-yil aprel, oktyabr
	Navoiy viloyati		202__-yil aprel, oktyabr	202__-yil may, noyabr
	Samarqand viloyati		202__-yil iyun, dekabr	202__-yil iyun, dekabr
	Sirdaryo viloyati		202__-yil mart, sentyabr	202__-yil mart, sentyabr
	Surxondaryo viloyati		202__-yil aprel, oktyabr	202__-yil aprel, oktyabr
	Xorazm viloyati		202__-yil may, noyabr	202__-yil may, noyabr
	Fargʻona viloyati		202__-yil may, noyabr	202__-yil may, noyabr
	Toshkent viloyati		202__-yil aprel, oktyabr	202__-yil aprel, oktyabr
	Toshkent shahri		202__-yil mart, sentyabr	202__-yil mart, sentyabr

Hududlarda offlayn seminar, master-klasslar respublikadan sogʻliqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari (konsultantlari), multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlarini jalb qilgan holda hududlarda oʻtkaziladi, *ishtirokchilar* viloyat va tuman Bosh mutaxassislari, KTMP tor mutaxassislari va oilaviy shifokorlardir.

Onlayn/offlayn seminar, master-klasslarni oʻtkazishda **SSVning tegishli boʻlimi xodimlari tomonidan:**

- onlayn/offlayn oʻqitishlar, yaʼni oʻquv-kurslar, seminarlar oʻtkazish rejasi tasdiqlatiladi, hududlarda offlayn oʻqitishlar oʻtkazish uchun ishchi guruhlar tashkil qilish boshqariladi;

- Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni ishlab chiqishga masʼul boʻlgan tashkilot, SSVning Bosh mutaxassislari(konsultantlari) bilan hamkorlikda milliy/mahalliy KPvaSlarni mazmuni va tarkibi yoritilgan prezentatsion (ppt) maʼruzalar tayyorlanishini nazorat qiladi;

- onlayn maʼruza oʻqiydigan RIIATM rahbari yoki SSVning Bosh mutaxassisi kabi maʼruzachidan oʻquv-kursidan 3 kun oldin prezentatsion (ppt) maʼruzani yigʻib oladi;

- ma'ruzani o'qish jarayonida savol va javoblar muhokama qilinishini, ishlab chiqilgan milliy/maxaliy KPvaSlar, SOMlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha tushunchalar berilishini nazorat qiladi.

Shuningdek amaliyotga tatbiq qilish uchun mas'ul bolgan **mas'ul tashkilotlar rahbarlari, SSVning Bosh mutahassislari (konsultantlari) tominidan:**

Onlayn/offlayn seminar, master-klasslarda foydalanilgan ma'ruzalarning ppt-prezentatsiyalari, milliy/mahalliy KPvaSlarni tasdiqlangan elektron shaklini o'quv-kurs, seminar va master-klasslar yakunida ishtirokchilarga taqdim etiladi;

Offlayn seminar va master-klasslar hududlardagi viloyat va tuman darajasidagi shifoxonalar, OP, OSHP, KTMPlarning o'zida faoliyat yuritayotgan amaliyot shifokorlari, tor mutaxassislar uchun o'tkaziladi.

Amaliyotdagi tibbiyot xodimlarining aholiga ko'rsatayotgan tibbiy xizmatini tasdiqlangan milliy/mahalliy KPvaSlarga muvofiq olib borilayotgani o'rganiladi, unda tibbiy kartalar va kasallik tarixlaridagi yozuvlar taxlil qilinadi, muammoli holatlarda o'zgartirish kiritish bo'yicha master-klass o'tkaziladi.

Onlayn/offlayn o'quv-kurslari, seminar va master-klasslarni o'tkazish jarayonida kunlik va yakuniy hisobot shakllari **9-ilovadagi** jadvalda keltirilgan hisobot shakliga muvofiq o'rnatilgan tartibda SSVning bo'limiga topshiriladi.

O'tkazilgan onlayn/offlayn o'quv-kurslari, seminar va master-klasslarni statistik ma'lumoti o'rnatilgan tartibda SSVning bo'limida **7-jadvalga** muvofiq yuritiladi.

7-jadval

Milliy/mahalliy klinik protokol va standartlar, standart operativ muolajalar asosida o'quv-kurslar, seminar va master klasslarni o'tkazish bo'yicha statistik tahlillar jadvali

T/r	Hududlar nomi	O'tkazilgan o'quv kurslari soni				Jami tibbiyot xodimlari o'qitilgan muassasalar soni				Jami o'qitilgan tibbiyot xodimlari			
		Onlayn		Offlayn		Ambulator		Statsionar		Shifokor		O'rta tibbiyot xodimi	
		Reja	Ijro	Reja	Ijro	Reja	Ijro	Reja	Ijro	Reja	Ijro	Reja	Ijro
1													
2													
...													

2. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimida oliy ta'limning bakalavriat, klinik ordinatura va magistratura bosqichi, diplomdan keyingi ta'limi malaka oshirish kurslarining o'quv dasturlariga tatbiq etish

Milliy/mahalliy KPvaSlarni tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimida oliy ta'limning bakalavriat, klinik ordinatura va magistratura bosqichi talabalarini, diplomdan keyingi ta'limi malaka oshirish kurslarida tegishli tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlar tarkibiga mavzulari mos ravishda kiritiladi, alohida o'quv-soatlar ajratiladi va o'qitiladi.

Bunda:

- sog'liqni saqlash vazirligining tegishli bo'limi tomonidan tibbiyot kadrlarini

tayyorlash tizimida oliy ta'limning bakalavriat, klinik ordinatura va magistratura bosqichi talabalari hamda diplomdan keyingi ta'limi malaka oshirishni olib boradigan tibbiyot ta'lim muassasalaridan mas'ul xodimlar bilan o'quv dasturlar ko'rib chiqiladi;

- tibbiyot ta'limining o'quv dasturlarida tibbiy yo'nalishlariga mos ravishdagi fanlar mavzulari qayta ko'rib chiqiladi hamda ishlab chiqilgan milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarning mazmuni bo'yicha mavzular kiritiladi va o'quv soatlari belgilanadi;

- milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlar asosida fan dasturlari va o'quv rejalarga kiritilgan mavzulari bo'yicha o'quv mashg'ulotlar o'tiladi.

- oliy ta'limning bakalavriat, klinik ordinatura va magistratura bosqichi hamda malaka oshirish kurslarini yakuniy imtihon biletlariga milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlar bo'yicha savollar kiritiladi.

3-bosqich

MONITORING O'TKAZISH VA MILLIY/MAHALLIY KLINIK PROTOKOL VA STANDARTLARGA MUVOFIQ TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHDA TIBBIY XATOLIKLARNI ANIQLASH

Milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni amaliyotda qo'llanilishining monitoringi

Milliy/mahalliy KPvaSlarni amaliyotga joriy qilish va ulardan foydalanishni nazoratini olib borish maqsadida, halqaro davlatlarda monitoringlar olib boriladi. Monitoring o'tkazishning asosiy maqsadi – amaliyotda milliy/mahalliy KPvaSlarni qo'llanilishi holatini o'rganishdir.

Monitoring sog'liqni saqlash vazirligining topshirig'iga muvofiq o'tkazilib, milliy/mahalliy KPvaSlarni ishlab chiqishga mas'ul bo'lgan tashkilot xodimlari, multidistsiplinar ishchi va mualliflar guruhlarining a'zolari, SSVning respublika, viloyat va tuman Bosh mutaxassislari, tibbiy Assotsiatsiyalar vakillarini jalb qilgan holda o'tkaziladi.

Monitoring o'tkazish uchun, quyidagilar amalga oshiriladi:

- yuqorida keltirilgan muassasalardan xodimlar jalb qilinib, hududlar kesimida ishchi guruhlar shakllantiriladi;

- metodologiyaning **6-jadvalida** keltirilgan grafik asosida o'quv-seminar, masster klasslardan so'ng monitoring o'tkazish rejasi tuziladi;

- **6-jadvalda** keltirilgan hududlarda monitoring o'tkazish uchun tibbiyot muassasalari va mutaxassisliklar belgilab olinadi;

- SSVning topshirig'iga muvofiq barcha hududlarga ishchi guruhlar safarbar qilinadi;

- monitoring o'tkazish uchun belgilangan muassasalarda metodologiyaning 10-ilovasida keltirilgan monitoring o'tkazish bo'yicha tartib asosida o'rganish o'tkaziladi, tegishli statistik ma'lumotlar shakllantiriladi;

- monitoring jarayonida hududiy tibbiyot muassasalaridagi tibbiyot xodimlariga amaliy yordamlar ko'rsatiladi;

- Milliy/mahalliy KPvaSlarga muvofiq ish jarayonini tashkillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi;

- monitoring yakunida hisobot tayyorlanadi, unda o'tkazilgan o'rganish, statistik ma'lumotlarni tahlili **8-jadvalga** muvofiq hamda 9-ilova asosida muammolar, kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritiladi;

8-jadval

Milliy/mahalliy klinik protokollar va standartlar, standart operatsion muolajalarni monitoringi natijasi bo'yicha statistik tahlillar jadvali

T/r	Hududlar nomi	O'tkazilgan monitoringlar soni		Jami monitoring o'tkazilgan tibbiyot muassasalari soni				Jami monitoringda faoliyati o'rganilgan tibbiyot xodimlari soni			
		Ambulator	Statsionar	Ambulator		Statsionar		Shifokor		O'rta tibbiyot xodimi	
		Reja	Ijro	Reja	Ijro	Reja	Ijro	Reja	Ijro	Reja	Ijro
1											
2											
...											

- monitoring jarayonini yakuni bo'yicha ma'lumotnomani o'rnatilgan tartibda SSVning tegishli bo'limiga topshiriladi.

Monitoringda tibbiy hatoliklarni aniqlash va statistik ma'lumotlarni yuritish jarayoni

- monitoringda milliy/mahalliy KpvaSlar asosida tibbiy xizmat ko'rsatishni o'rganish o'tkaziladi hamda tibbiy hatoliklar aniqlanadi, ro'yxatga olinadi (mazkur metodologiyaning 11-ilovasida tibbiy hatoliklar turlari, ularni aniqlash va ro'yxatga olish tartibi keltiriladi);

- ro'yxatga olingan tibbiy hatoliklar turlari, kelib chiqish sabablari tahlili o'tkaziladi hamda hatoliklarni oldini olish usullari belgilab olinadi;

- tibbiy hatoliklar statistikasini yuritish **9-jadvalga** muvofiq shakllantiriladi va taxlil qilib boriladi;

9-jadval

Tibbiy hatoliklarni aniqlash va tahlilini olib borish bo'yicha statistik ma'lumotlar jadvali

/r	Hududlar nomi	Umumiy aniqlangan tibbiy hatoliklar soni	Salbiy oqibatlar soni	Tashxislas hdagi hatoliklar soni	Salbiy oqibatlar soni	Davolash-dagi hatoliklar soni	Salbiy oqibatlar soni	Taxminiy tavsiyalar soni	Salbiy oqibatlar soni	Davolash standartlari ga rioya qilmaslik holatlari soni	Salbiy oqibatlar soni
		Abc./ %.	Abc./ %	Abc./ %	Abc./ %	Abc./ %	Abc./ %	Abc./ %	Abc./ %	Abc./ %	Abc./ %

- monitoring natijalari, aniqlangan tibbiy hatoliklarni sabablari, bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan taklif va tavsiyalar kiritilgan ma'lumotnomalar 12-ilovaga muvofiq ishlab chiqiladi hamda Vazirlikning tegishli departament/boshqarmasi/bo'limiga taqdim qilinadi;

- monitoringda aniqlangan tibbiy xatoliklarni bartaraf qilish yuzasidan milliy/mahalliy KPvaSlarni qayta ko‘rib chiqish hamda ularni yangilash ishlari olib boriladi.
- Tasdiqlangan milliy/mahalliy KPvaSlar, SOMlarni amaliyotga joriy qilish yuzasidan onlayn/offlayn o‘qitishlar, monitoringlar, tibbiy hatoliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar, statistik ma‘lumotlarni yuritish, tahlil qilish hamda hisobotlarni tayyorlab Sog‘liqni saqlash vazirligining tegishli departamenti/boshqarmasi/bo‘limiga topshirish **Mas‘ul bo‘lgan tashkilotlar rahbarlari va Sog‘liqni saqlash vazirligining Bosh mutaxassislariga** yuklatiladi.

Yangilangan Metodologiyada milliy/mahalliy klinik protokollarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayonida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan xarakterlar, shuningdek jarayonlarni tashkil qilish va amalga oshirish ko‘p bosqichli ishlarni bajarishni talab qiladi. Barcha manfaatdor tomonlarni amalga oshiradigan harakatlari 13-, 13A-ilovada keltiriladi. Har bir jarayon bo‘yicha ma‘lumotlarni taqdim etish muddatlari 13B-ilovaga muvofiq tashkillashtiriladi va olib boriladi.